

SHAVKATJON ABDURAZZOQOVNING XIZMAT YO‘LI.

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi

ilmiy hodimi: **G‘ulomjonova Odina**



Shavkatjon Shokirjonovich hozirda Namangan viloyati hokimi.

Shavkatjon Shokirjonovich Abdurazzoqov , — o‘zbek davlat arbobi. 2015—2017-yillarda Namangan tuman hokimi hokimi, 2017-yil iyulidan Namangan shahar hokimi bo‘lgan. 2020-yil 5-martdan 25-sentyabrgacha Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasini boshqargan. 2020-yil 25-dekabrda Namangan viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi etib tasdiqlandi. 2021-yil Namangan viloyat hokimi etib tayinlandi.

Biografiyasi

Shavkat Abdurazzoqov 1976-yilda Namanganda tug‘ilgan. 1998-yilda Namangan qurilish-muhandislik , 2006-yilda esa Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasini tamomlagan.

2015-yildan 2017-yilgacha Namangan tumani hokimi, 2017-yil iyuldan esa Namangan shahar hokimi va Vazirlar Mahkamasining qishloq va suv xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va iste‘mol tovarlari bo‘yicha axborot-tahlil bo‘limi boshlig‘i bo‘lib ishlagan.

2020-yil mart oyida Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasini boshqargan.

2020-yil 25-sentabrdan Namangan viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi etib tasdiqlandi.

Hayot shundayki, men har bir viloyatga rahbar bo‘la oladigan odamni to‘rt-besh yil oldin tayyorlashga majburman. Endi yangi hokim masalasida gapirsak. Shavkat Abdurazzoqov Namangan tumani, Namangan shahrida hokim bo‘lgan, Vazirlar Mahkamasida departament mudiri, vazir bo‘lib ishlagan. Namanganning sharoitini, xalqning dardini, Toshkentdagi kabinetlar eshigini qanday ochishni, masalani qanday hal qilishni biladi. Namanganga Toshkentdan birorta vazirni olib kelish mumkin edi, lekin Namanganni yaxshi biladigan odam qo‘yilishi to‘g‘riroq bo‘ladi. Men Shavkat Abdurazzoqovni Namangan viloyati hokimi vazifasiga tavsiya qilaman. Hozirgi holatda undan yaxshiroq nomzod yo‘q, deb o‘ylayman. U sizlar uchun yangi odam emas, o‘z ichingizdan chiqqan odam

Sh. Mirziyoyev, o‘z nutqida yangi hokim haqida juda iliq fikrlar bildirish bilan birga hokimning bo‘yniga juda katta ma’suliyat yukladi. Shavkat Abdurazzoqovga ishonch bildirildi.

Internetdagi mashhurlik

Shavkat Abdurazzoqov OAVga bergan intervyularidagi fikrlari tufayli jamoatchilik nazariga tushib turadi. Jumladan, 2021-yil aprel oyida „Internetdagi negativ fikrlar bekorchilikdan kelib chiqishi“ni aytgan bo‘lsa, hokimliklarning avtomashinalar xarid qilishi haqidagi tanqidlarga mashinalar chetdan keladigan mehmonlar uchun kerakligini aytib, tanqidlarga javob bergan edi. Shuningdek, Sh. Abdurazzoqov 2021-iyul oyida ijtimoiy tarmoqlarni bir oyga yopib, hammani kitob o‘qitish kerakligi haqidagi fikri tufayli ham ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari nazariga tushgan edi. Namangan viloyatining Davlatobod tumanidagi viloyat madaniyat saroyida xalq deputatlari viloyat, shahar va tuman kengashlarining qo‘shma majlisi bo‘lib o‘tdi. Maslahat kengashi tomonidan

qo‘shma majlis muhokamasiga 6-Serob saylov okrugidan xalq deputatlari viloyat kengashi deputati, viloyat hokimi Shavkatjon Abdurazzoqov nomzodini yashirin ovoz berish uchun byulletenga kiritish taklif qilindi.

Ovoz berishda Namangan viloyati, shahar va tuman kengashlarining 405 nafar deputatidan 389 nafari ishtirok etdi, 379 nafari Shavkatjon Abdurazzoqovni yoqlab ovoz berdi. Shu taxlit viloyat hokimi senator etib saylandi. Mehnat faoliyatini 1998 yilda Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari bo‘yicha Namangan viloyat boshqarmasi yetakchi mutaxassisligidan boshlagan.

2001–2015 yillarda Namangan viloyati hokimligi industriyani rivojlantirish, qurilish va kommunikatsiyalar masalalari kotibiyati referenti, Namangan viloyati Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari, boshqarma boshlig‘i vazifasini bajaruvchi, boshqarma boshlig‘i, Vazirlar Mahkamasi Iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari yig‘ma axborot-tahlil departamenti hududlarni kompleks rivojlantirish sho‘basining yetakchi mutaxassisi, bosh mutaxassisi bo‘lib ishlagan.

2015–2017 yillarda Namangan tumani hokimi bo‘lgan. 2017 yili Vazirlar Mahkamasi Qishloq va suv xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda iste‘mol tovarlari masalalari axborot-tahlil departamentining mudiri etib tayinlangan.

2017–2020 yillarda Namangan shahri hokimi lavozimida faoliyat yuritgan. 2020 yil 5 martdan O‘zbekiston Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi raisi lavozimida ishlagan.

Abdurazzoqov 2020 yil 25 sentyabrida Namangan viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi. 2021 yil 19 fevralda ushbu lavozimga tasdiqlandi. Kuni kecha “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi tuman” –Kosonsoydagi soy bo‘ylari ham zamonaviy ko‘rinish kasb etadi shiori ostida SHavkat Abdurazzoqov Kosonsoyga tashrif buyurdi va tumanda keng ko‘lamli ishlar boshlanishi to‘g‘risida ma‘lumotlar berildi. Kosonsoyda tumanida keng ko‘lamli obodonlashtirish va rekonstruksiya ishlari doirasida navbatdagi

muhim loyiha amalga oshirilishi kutilmoqda. Xususan kosonsoy soyining 1- suv inshootidan “Chorbog” mahallasining o’rta ko’prigigacha umumiy masofa 6 km bo’lgan hududda soy qirg’oqlari mustaxkamlanib betonlash ishlari olib boriladi, piyodalar va salomatlik yo’laklari barpo etilishi rejalashtirilgan. Shavkatjon Abdurazzoqovning bugungi o’zgarishlari ushbu hududdan boshlandi. Viloyat rahbari loyiha taqdimoti bilan tanishib, uning tuman infratuzilmasini yanada rivojlantirish sayyohlar va aholi uchun havfsiz, obod va har tomonlama qulay muhit yaratishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi. Shuningdek, ma’sullarga qurilish ishlarini tasdiqlagan loyiha xujjatlari asosida, belgilangan standart va muddatlarga qat’iy rioya etgan holda, yuqori sifatda davom ettirish bo’yicha tegishli ko’rsatmalar berdi. O’rganishlar davomida viloyat hokimi “Kosonsoy soyi” ning tabiiy holatini saqlabn qolgan holda yashil hududlarni kengaytirish, xorijiy sayyohlar uchun qulay, xavfsiz va jozibali dam olish shart-sharoitlarni yaratish muhimligini qayd etdi.

Bizdagi Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyining Mustaqillik bo’limida viloyat rahbarlariga bag’ishlangan alohida burchak tashkil etilgan bo’lib, unda Namangan viloyatining turli davrlarda faoliyat yuritgan jonkuyar hokimlarining hayoti va mehnat faoliyati atroflicha yoritib berilgan. Ushbu burchak muzeyga tashrif buyuruvchilarda viloyat boshqaruvi tarixi, rahbarlarning xalq farovonligi yo’lida amalga oshirgan ishlari haqida chuqur taassurot uyg’otadi.

Ekspozitsiyada har bir hokimning faoliyatiga doir fotosuratlar, qisqacha biografik ma’lumotlar, shuningdek, ularning viloyat rivojiga qo’shgan hissasi aks ettirilgan. Ilk hokimlar qatorida bugungi kunda ham o’z faoliyati bilan tanilgan Shavkatjon Shokirjonovich Abdurazzoqovning portreti ham munosib o’rin egallagan. Uning hayoti va xizmat yo’li haqida qisqacha, lekin mazmunli ma’lumotlar keltirilgan bo’lib, tashrifchilarga uning davlat boshqaruvidagi o’rni va ahamiyatini anglash imkonini beradi.

Mazkur burchak nafaqat tarixiy ma’lumot manbai, balki yosh avlodni vatanparvarlik, mas’uliyat va fidoyilik ruhida tarbiyalashda muhim ma’naviy ahamiyatga ega bo’lib

xizmat qiladi. Bu yerda aks etgan har bir shaxsning faoliyati orqali yurt ravnaqi yoʻlidagi mehnat, sadoqat va tashabbuskorlik qadriyatlari namoyon boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti — <https://president.uz>
- 2.Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qoʻmitasi rasmiy maʼlumotlari
- 3.Namangan viloyati hokimligi rasmiy sayti va axborot xizmati materiallari